



GEOEKOLOGIK MUAMMOLARNI PROGNOZ QILISH VA ULARNI OLDINI OLISH

Arziev Azizbek Ulug'bekovich

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7539693>

ARTICLE INFO

Received: 04th January 2023

Accepted: 14th January 2023

Online: 16th January 2023

KEY WORDS

Gat, gis, ekologik muammolar, ekzogen jarayonlar, endogen jarayonlar, antropogen omil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Geoekologik muammolarni prognoz qilish va ularni oldini olish haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, geoekologik muammolarni oldindan prognoz qilishda yordam beradigan tadqiqot usullari hamda zamonaviy texnologiyalar haqida ham ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Mavzu haqida gapirishdan oldin geoekologik muammolar o'zi nima? Qanday turlarga bo'linadi? Degan savollarga javob berib o'tsam. Geoekologik muammolarning turlari. Geoekologik muammo qotib qolgan, o'zgarimas holat bo'lmay, balki muntazam ravishda o'zgaruvchi va rivojlanuvchi, ko'p sonli oddiy muammolar tizimidir. Geoekologik muammolarni bir qancha ko'rsatkichlar (xo'jalik sohalari bilan bog'liq, egallagan maydoni bo'yicha, oqibatiga ko'ra, kelib chiqish omillari) bo'yicha tasniflash mumkin, lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, geoekologik muammo muayyanmaydonda tarkib topib shakllanadi. Shu sababli, bunday muammolar tarqalgan maydoni bo'yicha –sayyoraviy, regional va lokal, ayrim hollarda esa milliy kabi guruhlariga ajratiladi.

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur yetkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri — Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: "Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda"[1]¹

Bunday turli xil geoekologik muammolarning soni kundan kunga nafaqat yurtimizda balki butun yeri shari bo'ylab ko'payib bormoqda. Bu muammolarni paydo bo'lganidan keyin

¹ Farrux IGITOV,

Toshkent kimyo texnologiya instituti sanoat

ekologiyasi kafedrasi mudiri, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori maqolasi



yaxshilagandan ko'ra ularni oldini olgan maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilamiz atrof-muhit bizning hayotimizning hal qiluvchi qismidir. Bizning iqlimimiz o'zgarib bormoqda va biz dahshatli ob-havo sharoitlarini, global isishni boshdan kechirmoqdamiz. Ekinlar nobud bo'lmoqda, chunki ob-havoni oldindan aytib bo'lmaydi. Ko'plab muzliklar maydonlari erimoqda. Dunyo olimlari bu muammolarni hal qilish uchun ko'p harakat qildi, lekin hali qilinadigan ishlar ko'p. Agar biz GIS texnologiyasidan foydalansak, ko'proq narsani hal qila olamiz. GIS yoki geografik axborot tizimi (GAT) atrof-muhitni saqlash bo'yicha yaxshiroq strategiyalarni yaratishni osonlashtiradi. GIS sun'iy yo'ldosh tasvirlari va hujjatlar kabi vositalar bilan birgalikda ko'proq daraxtlarni saqlash va o'rmonlarning taqsimlanishini nazorat qilishda, suv havzalari muhofazasida yordam beradi bunda eng muhimi geoeologik muammolarni kelib chiqishini oldindan prognoz qilishimizga yorda beradi. Masalan, GIS sun'iy yo'ldosh tasvirlari yordamida o'rmonlarning tarqalishini kuzatishni osonlashtiradi. Bu o'rmonlarni saqlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga, suv boyliklarini saqlashga yordam beradi. Shu o'rinda suv muammosini bir bir eslab o'tsak.

Hozirgi kunda butun dunyoda 17 ta davlat "o'ta yuqori" darajada suv tanqisligiga uchragan mamlakatlar hisoblanadi. O'zbekiston mazkur ko'rsatkich bo'yicha 164 ta davlat orasida 25 - o'rinda turadi (beshlik shkalada 2-darajada), ya'ni "yuqori" darajada suv tanqisligiga uchragan davlatlar qatoriga kiradi. [Hofste, 2019; Nicoleta, 2020].

Sho'rlanish sababli har yili 10 mln. gektar yerlar tashlandiq yerga aylanib bormoqda. 2050 yilga kelib, butun dunyodagi qishloq xo'jaligi yerlarining 50%dan ko'prog'i tuproq sifati va degradatsiya (tanazzulga uchrashi) bilan bog'liq muammolarga duch kelishi taxmin qilinmoqda [Gorgios, 2020].

Ayniqsa, yerlarning degradatsiyasi Markaziy Osiyoda (asosan, O'zbekistonda) qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanishiga va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy muammo bo'lib, bu asosan suv tanqisligi bilan bog'liq.

O'zbekiston aholisining 2030 yilga kelib, qariyb 40 mln. kishiga yetishi mavjud suv resurslarining 7-8 km. kubga qisqarishini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda suv tanqisligi darajasi 13-14%dan 44-46%gacha oshishi mumkin, bu esa qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi (Alimdjanov, 2020).

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki geoeologik muammolarni paydo bo'lganidan keyin ular bilan kurashib muammoni yechishdan oldin ularni paydo bo'lishidan oldin oldini olgan maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek axborot to'liqligi tamoyiliga ham ahamiyat qaratgan maqsadga muvofiq desam mubolag'a bo'lmaydi. Bunda eng asosiy ma'no shundan iboratki biron-bir hududda paydo bo'lgan yoki endi bo'lishi kutilayotgan geoeologik muammoni hal qilish uchun eng avvalo nima qilsak u muammoga yechim topa olamiz deb barcha imkoniyatlarimizni ko'rib chiqqanimiz maqsadga muvofiq. Aks holda bu muammoni yechamiz deb axborot to'liqlik tamoyiliga amal qilmasak bu muammoni bundan ham katta bir geoeologik muammoga aylantirib qo'yishimiz mumkin.

References:

1. Farrux IGITOV, Toshkent kimyo texnologiya instituti sanoat ekologiyasi kafedrası mudiri, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori maqolasi.
2. Nigmatov A.N. Geoeologiya asoslari. Ma'ruza matni. -T.: O'zMU, 2012



3. Rafikov A.A. Geokologiya asoslari. Ma'ruza matni. T.: O'zMU, 2000
4. www.wikipedia.uz sayti
5. www.fayllar.org sayti
6. www.Ziyo.net sayti